

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QUVCHILARNI MULOQOT KO'NIKMALARINI METODIK RIVOJLANTIRISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7826737>

Tursunova Nilufar Turdiyevna

TAFU Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Annotation.

Ona tili ta'limalda o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini metodik rivojlanirishda amaldagi holati va istiqbollari, umumiy o'ta ta'limga ilg'or jahon tajribalari asosida metodik rivojlanirish tamoyillari, ona tili o'qitish metodikasi maktablarda integratsiyalashgan ta'lim asosida yaratilishi va o'quvchilarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan metodik tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar.

Yechim, o'quvchi, tinglab tushunish, gapiresh, o'qib tushunish, yozish, muloqot, ko'nikma, rivojlanirish, metodik tizim, ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalar, metodika, mazmun, usul, vosita, ishlab chiqish, rivojlanirish.

Ta'lim mazmuni umumta'lim maktab o'quvchilarini muloqot ko'nikmalarini innovatsion texnologiyalar asosida metodik rivojlanirish mexanizmi orqali yuzaga chiqariladi. Har bir mashg'ulotda taqdim qilingan ma'lumotning o'quvchi uchun kundalik hayotdagi foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida muloqot ko'nikmalaridan unumli foydalilaniladi. Xalqaro tajribalarda innovatsion texnologiyalar asosida ona tili ta'lim mazmunini metodik rivojlanirish o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Umumta'lim maktab o'quvchilarini muloqot ko'nikmalarini belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi, shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida ona tili boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitilmoqda. Mamlakatda shakllangan yangi til siyosati uning ta'limiga ham zarur talablarini qo'yamoqda. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"¹⁹²ligi ona tili ta'limi oldiga, xususan, umumt'lim maktab o'quvchilarini muloqot ko'nikmalarini innovatsion texnologiyalar asosida metodik rivojlanirish

¹⁹² uza.uz. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги нутки. 2019 йил 21 октябрь

mexanizmlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishdek dolzarb vazifalar qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish..."¹⁹³ muhim vazifa etib belgilangan. Bu qonuniy asos umumta'lim maktab o'quvchilarida muloqot ko'nikmalarini innovatsion texnologiyalar asosida metodik rivojlantirish orqali turli nutq vaziyatiga tayyor, o'z fikrini turli shakllarda ravon va mantiqan izchil ifodalab bera olish kompetensiyasini rivojlantirish orqali ona tili ta'limini yangi bosqichga ko'tarish va nutqiy muloqot ko'nikmalarini ta'minlash tizimini rivojlantirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712son Farmonida ta'kidlangan "...o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individullashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" bilan bog'liq ko'rsatmasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda¹⁹⁴, shuningdek, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabr kuni nihoyatda muhim bo'lgan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ona tili metodikasini tubdan yangilash to'g'risida fikrlari keltirilgan 2020 yilning 20 oktabr kungi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni hamda mazkur masalaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalgalashda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Ona tili ta'lim mazmunini, o'qitishga doir mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rGANISH, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; umumiyl o'rta ta'lim tizimida muloqot ko'nikmalaridan innovatsion texnologiyalar asosida metodik foydalanishning bugungi ahvolini o'rGANISH va lingvodidaktik mazmundagi muloqot ko'nikmalarini innovatsion texnologiyalar asosida ona tili ta'limidagi

¹⁹³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли Фармони. – Т.: 2017 йил 7 февраль. Электрон манба: www.lex.uz/docs/

¹⁹⁴ Мирзиёев Ш. "Ўзбекистон Республикаси халқ таълимни тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlash тўғрисида"ги ПФ-5712-сонли Фармони. 29 апрель, 2019 йил. Электрон манба: lex.uz/docs/3412785.

o'rnini belgilash; darsliklardagi o'quv materiallarining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, o'quvchilarni nutqini o'stirish, nutqiy muloqot ko'nikmalari orqali o'qitish bilan bog'liq muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlar taklif qilish; o'quvchilarda tinglab tushunish (anglash), gapirish (nutq so'zlash), o'qib tushunish (fahmlash) va yozish (savodli va mazmunli matn tuzish - insho) kabi muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodik tizimni ishlab chiqish; umumta'lim maktab o'quvchilarini muloqot ko'nikmalarini innovatsion texnologiyalar asosida metodik rivojlantirish mexanizmlari orqali fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni rivojlantirishdan iborat. O'quvchilarini muloqot ko'nikmalarini innovatsion texnologiyalar asosida metodik rivojlantiriladi ya'ni *matn tahlili* va *nutq* tushunchalariga oid pedagogik, psixologik va lingvendidaktik jihatdan yangicha ta'rif berildi, qo'llanilish o'rnlari, bajaradigan vazifalari aniqlab berildi. Nutq so'zlash malakasi ham baravar rivojlanishi lozimligini nazarda tutib, o'quvchini to'g'ri va mantiqli so'zlashga o'rgatish metodlari ishlab chiqildi; ona tilidan baholash tizimi uchun matn ustida ishlash orqali - *eshitganlarini to'g'ri tushuna olish* - (anglash), *adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish* - (nutq so'zlash), *matnni o'qib tushuna olish* - (fahmlash) hamda *to'g'ri va mazmunli yoza olish* - (insho) kabi ko'nikmalar taklif qilindi. Lingvendidaktik yondashuv asosida rivojlantirilgan muloqot ko'nikmalari ona tili ta'lif mazmunini yangilash, o'qitish jarayonida spiralsimon tamoyil asosida matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda nutqiy muloqot ko'nikmalar rivojlanib, o'qish savodxonligi oshgani aniqlandi;

Kichik sinflarda ishlash mashg'ulot rejasini tuzish:

1. Mashg'ulot rejasini tuziladi, kichik sinflarda ishlash mashg'ulotning qaysi vaqtida boshlanishi belgilanadi.
2. O'quvchilar bir necha sinflarga bo'linadi.
3. Kichik sinflarda ishlash uchun mavzuga oid muammoli savol yoki matn tanlanadi. Savolning maqsadi va vazifasi o'quvchilarga aniq tushuntiriladi.
4. Muammo ustida ishslash uchun vaqt belgilanadi. Odatda 15-20 minut har qanday mavzu ichidagi masala ustida qaror qabul qilishga yetarli hisoblanadi.
5. Sinflar uchun prezentatsiya shakli tanlanadi.
6. Sinflar o'z sardorini saylashadi. Buning uchun alohida vaqt berish shart emas.
7. Sinflarga mavjud o'quv-uslubiy, o'quv-vizual materiallardan foydalanish imkoniyati ham berilishi mumkin.

8.O'qituvchi auditoriyada shovqin bo'lishiga, ayrim o'quvchilarni passiv ishtirokchi bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaydi, sinflar faoliyatini nazorat qilib, ularning fikrlarini o'rganib boradi.

9. Guruh sardorlari mavzu bo'yicha guruhning umumiy fikrini prezentatsiya shaklida himoya qiladi. Prezentatsiya uchun odatda 10 minutdan ortiq vaqt berish tavsiya etilmaydi.

10. Prezentatsiya tugagach, baxs-munozara uchun vaqt ajratiladi, o'qituvchi muammoni umumiy tahlil qiladi, sinflar faoliyatiga baho beradi. *Sinkveyn* – 20 asr boshlarida yapon poeziyasi ta'sirisi ostida Amerika Qo'shma shtatlarida yuzaga kelgan, besh qatorli she'riy satrdan iborat tuzilishli uslub hisoblanadi. Keyinchalik didaktik maqsadda qo'llanila boshlangan obrazli nutqni rivojlantiruvchi samarali usul, tez natijaga olib keladi. Bu usul murakkab ma'lumotlarni sintezlashga yordam beradi, qatnashchilarning so'z boyligini oshirishga ahamiyatli. 1 satr – bir so'zdan iborat, odatda ega (ot), asosiy g'oyani bildiradi; 2 satr – 2 ta sifat shaklidagi so'zdan iborat bo'lib, asosiy mohiyatni ochib beradi; 3 satr – 3 ta f'eldan iborat so'z, mavzu doirasida harakat, ta'sirni ochib beradi; 4 satr – bir necha so'zlardan iborat fraza, mavzuga munosabatni anglatadi; 5 satr – bir so'z, (assotsiatsiya, mavzu sinonimi, odatda ega, mavzuga emeqional munosabat ham berilishi mumkin). **SKAMPER** (Scamper) usuli kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi usul bo'lib, –(inglizcha. Substitute, Combine, Adapt, Modify, Put, Eliminate, Reverse.) harakatlar ro'yxati, o'zgartirishlar ko'rinishidagi muammolarni hal qilish usuli. U 1997 yilda Bob Eberle tomonidan ishlab chiqilgan, lekin g'oya Aleks Osborn tegishli.

Qисқартирма	Модификатсиya (angl.)	Ma'nosi
S	Substitute	O'zgartirish, masalan, komponentlar, muloqot, nutq, monolog, poliolog, dialog
C	Combine	Birlashtirish (kombinirovat) masalan boshqa funksiyalar.
A	Adapt	Qo'shish, moslashtirish, yangi element, funksiyalar
M	Modify	Modifikatsiyalash, matnini, shaklini, muloqot turini o'zgartirish
P	Put	Boshqa sohada qo'llash
E	Eliminate	Bir qismini olib tashlash, soddalashtirish
R	Reverse	O'rnini almashtirish teskari o'girish, teskari narsaga

	ishlatib ko'rish
--	------------------

Ushbu usul ko'pincha yangi matnlarni ishlab chiqishda va o'quvchining vazifasiga kiritilgan o'zgartirish, matn tahlili, nutqiy va lingvistik yondashuv, savollarga doimiy ravishda javob berishda ishlatiladi. U tahlillarni, vaziyatlarni paydo bo'lishiga hissa qo'shadigan o'nlab savollar va yuzlab so'zlarni o'z ichiga oladi

Asosiy tartib: Muammoni va uning tarkibiy qismlarini aniqlab olish; Ishlash uchun jadval tayyorlash, ustunlarga qo'yilgan muammo elementlarini yozib chiqish; Tanlangan harakat uchun nazorat savolariga javob berib, har bir ustunni navbatma-navbat to'ldirish; Jadvalni to'ldirib bo'lgach eng qiziqarli g'oyalar tanlash; tanlangan g'oyalar tizimli amalga oshiriladi

«UCH BOSQICHLI INTERVYU» USULI

Guruh 3 ga bo'linadi. 1-guruuhga o'quvchilar, 2-siga ekspertlar, 3-siga esa mehmonlar. Shunday qilib, har bir guruuhda (3 kishi)ga bo'linadi. Tashxis aytildi. Har bir guruuh 10-15 daqiqa davomida maslahat o'tkazadi.

Ekspert o'quvchilar harakatlarni baholab 3 qismga bo'ladi: To'g'ri bajarildi. Nima to'g'ri qilindi. Qanday kilinishi kerak edi. Bu usul bilimlar va o'zlashtirishlar, o'quvchilarni ko'zdan kechirish, to'liq konsultasiyalarni 15 min. ichida baholashga asoslangan. Masalan: Har bir guruuh ekspert izohi bilan maslahatlarini namoyon etadi. Boshka guruuh o'quvchilar ekspert rolida o'quvchilarning maslaxati va qabul qilish taktikasini tahlil qiladi.

Venn diagrammasi ingliz faylasufi Djon Venna nomi bilan atalgan).

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

O'quvchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi. Navbatdagi bosqichda o'quvchilar to'rt kishidan iborat kichik sinflarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruuh a'zolarini tanishtiradilar. Juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. “Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lган ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o'rghanadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan. Demak, xulosa sifatida, o'qitishda yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'qitish jarayoni davomida o'quvchilarning ona tili va adabiyot fanlarini ko'proq o'qishi va bilimlar, amaliy ko'nikmalarni mustahkam egallashlari uchun zarur o'quv-uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, kompyuter, multimedya, internet ma'lumotlaridan unumli foydalaniadi. Shuningdek, interaktiv pedagogik usullarning mos keluvchi turlaridan samarali qo'llaniladi. Bular: kompyuterda ko'p muqobil javobli testlarni echish; keys stadi usuli; loyihibiy ta’lim; muammolarga yo'naltirilgan o'qitish; amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam baholash; multimediali prezентasiya usulini dars jarayoniga qo'llash; guruhdagi munozara usulini qo'llash; "nutq" va "muloqot" tushunchalariga ma'no-mohiyatiga ko'ra pedagogik, psixologik va lingvovididaktik jihatdan berilgan yangicha ta'rifi, qo'llanilish o'rnlari, bajaradigan vazifalariga ko'ra tasniflanishidan foydalaniilgan. Ona tili ta'li mazmuni sifatida o'qitishning zamонавиј metodikasini ishlab chiqishdanb shakllangan bilim ko'nikma va malakalarni sinash vazifasini ham bajarishga asoslandi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T: 1997. 20-29 b.
2. Axmedova M.E. // "Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari" // Monografiya // "Tibbiyat nashriyoti matbaa uyi" MCHJ Toshkent-2022, 136 bet.
3. Axmedova M.E. // "PEDAGOGIKA" dasrlik "Tibbiyat nashriyoti matbaa uyi" MCHJ Toshkent-2022, 212 bet.

4.Axmedova M.E. Talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari // O'zbekiston til va madaniyat. Metodika jurnali.T. – Toshkent, 2022. - №1(4). -B. 70-81.

5.Akhmedova M.E. Foreign experience in the transition to a credit-module system // Principles of development of linguistic-speech competence of students in independent education // Current Research Journal of Philological Sciences (2767-3758). №3(01). - R. 46-57 (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 6,925

6. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Xindiston, 2022. - P. 165- 172. Vol. 12, Issue 01. (13.00.00; №20). (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,037

7.Akhmedova M.E Improvement of didactic, pragmatic methods of independent study tasks in philological education in the credit-module system // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Xindiston, 2022. - P. 86-90 Vol. 12, Issue 02. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,625

8.Akhmedova M.E Improvement of pedagogical - pragmatic processes of independent study // Tasks in philological higher education European journal of Humanities & Educational Advancements pages Vol. 3 No. 04, April 2022, Spain, - P. 279-281. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 7,223

9.Axmedova M.E. Features of module-credit, methods of question use and competence in creation of independent educational tasks / New York 2022. 28 iyun. Pages 217-221. Conference.